



FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

Iste 'dodlarni kashf etamiz!

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI
FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

ASOSIY OLIMPIADANING RESPUBLIKA BOSQICHI ISHTIROKCHILARI UCHUN

11-SINF GEOGRAFIYA FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familyysi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test topshiriqlari kitobi 40 ta (1 – 40) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq turdag'i test topshiriqlari mavjud:

– yopiq turdag'i test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va maxsus javoblar varaqasiga mos javobni bo'yang;

*Savollar soni: 40 ta
Maksimal ball: 100 ball
Sana: 26.03.2025*

Fan olimpiadalarini markazi
rasmiy telegram sahifasi.
@Fan_olimpiadalar_M



Olimpiada topshiriqlari
yechimlari ushbu telegram
kanalda e'lon qilib boriladi.

© Fan olimpiadalarini markazi, 2025

1. [1.3 ball] Quyidagi okean oqimlaridan qaysilari iliq oqimlar hisoblanadi?

- | | |
|--------------------|--------------------------------|
| A) Peru, Gviana | B) Gvineya, G'arbiy Avstraliya |
| C) Bengela, Musson | D) Janubiy passat, Mozambik |

2. [1.3 ball] Italiyaning eng yirik va rivojlangan iqtisodiy markazlari uning qaysi qismida joylashgan?

- | | | | |
|--------------|-------------|-------------|-------------|
| A) shimolida | B) sharqida | C) janubida | D) g'arbida |
|--------------|-------------|-------------|-------------|

3. [1.3 ball] Myanma bilan chegaradosh bo'lmagan davlat berilgan javobni belgilang.

- | | | | |
|------------|------------|---------|---------------|
| A) Tailand | B) Vyetnam | C) Laos | D) Bangladesh |
|------------|------------|---------|---------------|

4. [1.3 ball] Osiyo subregionlarining qaysi birida 11 ta davlat mavjud?

- | | |
|-------------------------|------------------------|
| A) Janubi-g'arbiy Osiyo | B) Janubi-sharqi Osiyo |
| C) Janubiy Osiyo | D) Sharqi Osiyo |


5. [1.3 ball] Boybichakon va Oqqal'a konlaridan qanday foydali qazilma qazib olinadi?

- | | | | |
|-------------|-------------|----------------|-----------|
| A) fosforit | B) osh tuzi | C) oltingugurt | D) marmar |
|-------------|-------------|----------------|-----------|

6. [1.3 ball] O'rta Zarafshon va Quyi Zarafshon tabiiy geografik okruglarini qaysi geografik obyekt ajratib turadi?

- | | |
|------------------------|-------------------------|
| A) Tuyamo'yin tangligi | B) Taxiatosh tangligi |
| C) Xazar yo'lagi | D) Amir Temur darvozasi |

7. [1.3 ball] Quyidagi sxematik xaritada Turkiston tizmasi qaysi raqam bilan belgilangan?



- | | | | |
|--------|------|-------|--------|
| A) III | B) V | C) VI | D) VII |
|--------|------|-------|--------|

8. [1.3 ball] O'zbekistondagi qorako'l qo'ylarning va tuyalarning yarmidan ko'pi qaysi iqtisodiy rayonda boqiladi?

- | | | | |
|-------------|--------------|-------------|------------------|
| A) Farg'ona | B) Zarafshon | C) Toshkent | D) Quyi Amudaryo |
|-------------|--------------|-------------|------------------|

9. [1.3 ball] Quyidagilardan qaysi daryo Rossianing Yevropa qismida daryo transporti tarmoqlarining o'zagi bo'lib xizmat qiladi?

- | | | | |
|------------|---------|----------|--------|
| A) Pechora | B) Ural | C) Volga | D) Don |
|------------|---------|----------|--------|

10. [1.3 ball] Quyidagi masshtablardan qaysi biri eng yirik?

- | | | | |
|--------------------|------------------|----------------|-------------------|
| A) 1 sm da 2000 km | B) 1 sm da 500 m | C) 1sm da 6 km | D) 1 sm da 1500 m |
|--------------------|------------------|----------------|-------------------|

11. [2.4 ball] Taxiatosh tangligidan qaysi tomonga qarab Amudaryoning hozirgi zamon deltasi boshlanadi?

- | | | | |
|--------------------|---------------------|-------------------|--------------------|
| A) shimoli-sharqqa | B) shimoli-g'arbg'a | C) janubi-sharqqa | D) janubi-g'arbg'a |
|--------------------|---------------------|-------------------|--------------------|

12. [2.4 ball] Quyidagi rasmida qaysi tabiiy geografik jarayon tasvirlangan?



- A) abraziya B) deflyatsiya C) surilma D) karst

13. [2.4 ball] Quyidagi orollardan qaysi biri Fransiyaga tegishli emas?


- A) Klipperton B) Kokos C) Gvadelupa D) Mayotta

14. [2.4 ball] Quyida berilgan xususiyatlardan qaysilari Atlantika okeani uchun xos?

1) materik sayozligi (shelf) maydoni bo'yicha eng birinchi; 2) cho'kindi jinslar eng qalim; 3) materiklar dreyfi gipotezasiga asos bo'lgan; 4) o'simlik va hayvonlarga eng kambag'al; 5) dengiz transportida dunyoda birinchi o'rinda turadi; 6) iqlim va tabiat mintaqalari eng kam.

- A) 1; 2; 5 B) 3; 5 C) 4; 5 D) 1; 4; 6


15. [2.4 ball] Karta-sxemada boshqaruв shakli respublika bo'lgan davlatlar qaysi raqamlar bilan belgilangan?



- A) 1; 2; 9 B) 1; 3; 7 C) 1; 4; 8 D) 2; 3; 5

16. [2.4 ball] Davlatlar va ularga oid ma'lumotlar.

Xitoy Hindiston



- 1) federativ davlat;
- 2) yuqori urbanizatsiyalashgan davlat;
- 3) etnik tarkibi jihatidan ko‘p millatli davlat;
- 4) sug‘oriladigan maydonlar hajmiga ko‘ra yetakchilardan;
- 5) yalpi ichki mahsuloti hajmiga ko‘ra dunyodagi 3 ta yetakchi davlat qatoriga kiradi;
- 6) yarimorolda joylashgan.

Berilgan ma‘lumotlar asosida Eyler-Venn diagrammasining kesishmasiga mos tushadigan to‘g‘ri javobni toping.

- A) 1; 2; 3 B) 3; 4; 5 C) 4; 5; 6 D) 2; 3; 6

17. [2.4 ball] AQSH kimyo va neft-kimyo sanoatining eng yirik rayoni mamlakatning qaysi qismida shakllangan?

- A) janubida B) shimolida C) sharqida D) g‘arbida

18. [2.4 ball] Jadvaldagи ma‘lumotlardan foydalanib soat 13:00 da 1 m³ havoning namga to‘yinishi uchun necha gramm suv bug‘i kerak bo‘lishini aniqlang.

| Meteostansiyada kuzatilgan ob-havo ko‘rsatkichlari | | | | |
|---|-----------------------|--------------------------------|--------------------------|--|
| Vaqt | Havo harorati (°C) | Havoning nisbiy namligi (%) | Havo bosimi (mmHg) | 1 m ³ havo o‘zida tutib tura oladigan suv bug‘i miqdori |
| 01:00 | 5 | 70 | 756 | 0° C – 5 g |
| 07:00 | 11 | 65 | 754 | 10° C – 9 g |
| 13:00 | 20 | 80 | 753 | 20° C – 17 g |
| 19:00 | 12 | 80 | 755 | 30° C – 30 g |

- A) 3,4 g B) 1,7 g C) 5,1 g D) 2,3 g

19. [2.4 ball] Quyidagi davlatlardan qaysi birining qirg‘oqlari ikkita okean suvlari bilan yuviladi?

- A) Salvador B) Venesuela C) Kolumbiya D) Beliz

20. [2.4 ball] Quyidagi xaritada alohida ajratilib ko‘rsatilgan hududda qaysi relyef shakli mavjud?



- A) tog‘lar B) tekisliklar C) yassitog‘liklar D) qirlar


21. [2.4 ball] Aldan, Kolima, Xatanga, Vilyuy, Anabar daryolari qaysi o‘lkaning asosiy daryolari hisoblanadi?

- A) G‘arbiy Sibir B) Sharqiy Sibir C) Sharqiy Yevropa D) Uzoq Sharq

22. [2.4 ball] Quyidagilardan qaysi dengiz Reyn daryosining mansabi hisoblanadi?


- A) Barends B) Shimoliy C) Qora dengiz D) Boltiq

23. [2.4 ball] Quyidagi xaritada yiriklashtirib ko‘rsatilgan yassitog‘liklarning qaysi birida 5000 m dan baland cho‘qqilar mavjud?



- A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

24. [2.4 ball] Xaritada federativ tuzilishga ega bo‘lgan davlatlar qaysi raqamlar bilan ko‘rsatilgan?



- A) 7, 17 B) 8, 12 C) 17, 19 D) 1, 18

25. [2.4 ball] Polsha, Ruminiya, Meksika davlatlariga quyidagilardan qaysi umumiyligida xususiyat xos?

- A) elektr energiyasining asosiy qismini GESlarda ishlab chiqariladi
B) AESlar asosida olinuvchi elektr energiyasi ulushi eng yuqori bo‘lgan davlatlar hisoblanadi

- C) geotermal energiyadan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan
 D) ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining asosiy qismi IESlarga to‘g‘ri keladi

26. [3.4 ball] Qozog‘istonning dehqonchilikiga oid ma’lumotni aniqlang.

A) Dehqonchilikning yetakchi tarmog‘i donchilik. U ayniqsa mamlakatning shimoliy viloyatlaridagi lalmi yerlarda yaxshi rivojlangan. Janubiy viloyatlarida dehqonchilik sug‘orish yordamida rivojlantirilib, bu yerda uning asosiy tarmoqlari sabzavotchilik, sholichilik, polizchilik va bog‘dorchilik hisoblanadi.

B) Dehqonchilikning eng muhim tarmog‘i donchilik hisoblanadi. Donchilik asosan mamlakat janubi va janubi-g‘arbini egallagan dasht va o‘rmon-dasht zonasida yaxshi rivojlangan. Don ekinlarining yalpi hosili bo‘yicha jahoning yetakchi 5 ta davlatlari qatoriga kiradi va don, xususan, bug‘doy eksporti bo‘yicha dunyo miqyosida ajralib turadi.

C) Mamlakat ekin maydonlarining 2/5 qismi sug‘orishni talab qiladi. Sug‘oriladigan maydonlar hajmiga ko‘ra 2-o‘rinda turadi. Hozirgi vaqtida sholi, bug‘doy, kartoshka, shakarqamish, yeryong‘oq, sabzavot, meva, paxta, choy, murch, turli dorivor ekinlar yetishtirish bo‘yicha jahon mamlakatlarining birinchi uchligiga kiradi.

D) Dehqonchilikning yetakchi tarmog‘i donchilik. U ayniqsa mamlakatning janubiy viloyatlaridagi lalmi yerlarda yaxshi rivojlangan. Shimoliy va g‘arbiy viloyatlarida dehqonchilik sug‘orish yordamida rivojlantirilib, bu yerda uning asosiy tarmoqlari sholichilik, polizchilik va bog‘dorchilik hisoblanadi.


27. [3.4 ball] Matnni o‘qing.

Qazilma boyliklarning xilma-xilligi jihatidan bironqa rayon unga tenglasha olmaydi. Iqtisodiy rayonda neft bilan tabiiy gazgina yo‘q. Zarur bo‘lgan neft mahsulotlari temiryo‘l hamda avtomobil transportida, gaz esa quvurda keltirilmoqda.

Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi iqtisodiy rayonga oid ekanligini aniqlang.

- A) Farg‘ona B) Zarafshon C) Toshkent D) Quyi Amudaryo

28. [3.4 ball] Quyidagi iqlim grafiklaridan qaysi biri London shahriga oid ekanligini aniqlang.




29. [3.4 ball] Tog‘oldi prolyuvial tekisliklari va daryo vodiyalarining yuqori terrasalariga xos xususiyatlar to‘g‘ri berilgan qatorni belgilang.


- A) yerosti suvlarining gorizontal harakati yuqori darajada ta’minlangan bo‘lib, bu suvlarining sathi ko‘tarilmaydi, chunki lyossimon jinslar ostida shag‘al toshlar yotadi.
- B) yerosti suvlarining gorizontal harakati ta’minlangan, ammo ayrim pastqam joylarda u yer yuzasiga yaqin ko‘tariladi va sho‘rlanishga sabab bo‘lishi mumkin.
- C) yerosti suvlarining gorizontal harakati yaxshi emas, sug‘orish davomida ularning sathi ko‘tariladi va tuproqda tuz to‘plana boshlaydi.
- D) yerosti suvlarining gorizontal harakati ta’minlanmagan, ularning sathi sug‘orish paytida tezda ko‘tarilib ketadi.

30. [3.4 ball] Quyidagi aholining o‘sish suratlarini ifodalovchi grafiklardan qaysi biri Pokiston aholisiga oid ekanligini aniqlang.


A)




B)




C)



D)




31. [3.4 ball] Xaritada alohida ajratilib ko'rsatilgan hududlar qaysi davlat mustamlakasi bo'lgan?



- A) Italiya B) Portugaliya C) Germaniya D) Fransiya

32. [3.4 ball] Quyida berilgan yosh-jins piramidasi qaysi davlatga tegishli ekanligini aniqlang.




A) Pokiston


B) Hindiston

C) Misr

D) BAA

33. [3.4 ball] Quyidagi rasmlar (1, 2, 3, 4) xaritada berilgan qaysi nuqtalar (A, B, C, D) ga mos kelishini aniqlang.





- A) 1-A; 2-B; 3-C; 4-D
C) 1-B; 2-A; 3-C; 4-D

- B) 1-A; 2-D; 3-B; 4-C
D) 1-A; 2-B; 3-D; 4-C

34. [3.4 ball] Tanganika ko‘li qirg‘oqlarida joylashgan davlatlar to‘g‘ri berilgan javobni belgilang.

- A) KDR, Ruanda, Zambiya, Tanzaniya B) KDR, Burundi, Malavi, Tanzaniya
C) KDR, Uganda, Zambiya, Tanzaniya D) KDR, Burundi, Zambiya, Tanzaniya

35. [3.4 ball] Matnni o‘qing.

Havo massalari mavsumga qarab o‘zgaradi. Yozda mo‘l yomg‘ir yog‘adi. Qish quruq va yog‘insiz bo‘ladi, harorati yoznikidan deyarli farq qilmaydi.

Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi iqlim mintaqasiga oid ekanligini aniqlang.

- A) ekvatorial B) subekvatorial C) tropik D) subtropik

36. [3.4 ball] Matnni o‘qing.

Okeanning shimoliy qismida oqimlarning hosil bo‘lishiga mavsumiy shamollarning almashinishi ta’sir ko‘rsatadi. Musson shamollari suv harakati yo‘nalishi harakatini o‘zgartiradi. Okeanda materik sayozligi katta maydonni egallamagan. Okean tagi boshqa okeanlardagiga qaraganda katta. Uni ko‘plab qirlar kesib o‘tgan.

Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.

- A) Tinch B) Atlantika C) Hind D) Shimoliy Muz

37. [3.4 ball] Avstraliyaning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini ko‘p jihatdan qaysi tarmoqlar belgilaydi?

- A) turizm va rekreatsiya B) tog‘-kon va yoqilg‘i sanoati
C) yengil va oziq-ovqat sanoati D) o‘rmon va yog‘ochni qayta ishlash

38. [3.4 ball] Farg'ona iqtisodiy rayoni quyidagi qaysi ko'rsatkichlari jihatidan iqtisodiy geografik rayonlar ichida birinchi o'rinda turadi?

- A) yoqilg'i, gidroenergetika resurslariga boyligi
- B) polimetall rudalari va mineral o'g'itlar salmog'i
- C) sug'oriladigan yerlar, chorva mollari va aholi soni
- D) aholisining soni, zichligi va ishchi kuchlarining salmog'i

39. [3.4 ball] O'zbekistondagi tog'lar va ularning qaysi tabiiy geografik okrug hududiga tegishli ekanligi mos ravishda berilgan javobni aniqlang.

| Tog'lar | | Tabiiy geografik okruglar | |
|----------------|-------------|----------------------------------|---------------------|
| 1 | Quljuqtog' | a | Chirichiq-Ohangaron |
| 2 | G'ubdintog' | b | Qizilqum |
| 3 | Qorjontov | c | O'rta Zarafshon |
| 4 | Beshnov | d | Surxondaryo |
| 5 | Ko'hitang | e | Qashqadaryo |

- A) 1-b; 2-c; 3-d; 4-a; 5-e
- B) 1-a; 2-b; 3-c; 4-e; 5-d
- C) 1-b; 2-c; 3-a; 4-e; 5-d
- D) 1-d; 2-c; 3-a; 4-e; 5-b

40. [3.4 ball] Quyidagi fikrlardan qaysi biri to'g'ri?

- A) eng baland to'lqin Tinch okeanning janubiy qismida qayd qilingan
- B) qutblardan ekvator tomon yuza sovuq oqimlar, ekvatordan qutblar tomon tub iliq oqimlar harakatlanadi
- C) materiklar qirg'oqlarida to'lqin balandligi ortadi
- D) bir tomonga esadigan shamollar ta'sirida okean suvining 3000 m gacha qalinlikdagi yuza qatlami harakatlanadi